

GLOBALIZATSIYA DAVRIDA INGLIZ TILINING USTUNLIGI VA TIL TENGSIZLIGI

Maxmudova Sabina Avazjonovna

Xorijiy tillar kafedrası dotsenti,

Zarmed Universiteti

Fazliddinova Laziza Ilxomovna

Zarmed Universiteti, 2-kurs talabasi

Tel: +998 (99) 175-16-42

E-mail: lazizafazliddinova42@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya davrida ingliz tilining boshqa tillardan ustunligi va tengsizligi masalasi ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshqa tillarning ingliz tilidan quyi pog'onaga tushib ketishiga olib kelayotgan asosiy omillarni aniqlashdir. Maqolada ingliz tiliga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani, bu tildan faqat ta'limda emas, balki kundalik hayotda ham foydalanilayotgani va bu holat mahalliy aholining madaniyatiga ta'sir qilayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, ingliz tilining ustunligi, etno lingvistik tillar, madaniyatlar xilma-xilligi.

KIRISH.

Globalizatsiya dunyo davlatlarini texnika-texnologiyalar asri XXI asrda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik jihatdan yanada yaqinlashtirdi. Bu jarayonda ingliz tili jahon muloqotining asosiy vositasi hisoblanadi. Hozirda nafaqat Yevropa mamlakatlari, balki o'tgan asrlarda Sobiq Sovet Ittifoqi hukmronlik qilgan paytda rus tilidan asosiy til sifatida foydalangan Markaziy Osiyo xalqlari ham ingliz tilidan foydalanmoqda. Bularning bari tarixga borib taqaladi, ya'ni Britaniya imperiyasining kengayishi va AQSH ning iqtisodiy va texnologik ustunligi XX asrlarda ingliz tilining global mavqeyini mustahkamladi. Keyin, dunyo urushlaridan so'ng Xalqaro tashkilotlar BMT, YUNESKO, YUNISEF va diplomatiyada ingliz tili ishlatila boshlandi. Shunday bo'lsa-da, u ayrim milliy tillar o'rtasida tengsizlikni yuzaga keltirmoqda. Bu maqola globalizatsiya davrida ingliz tili ustunligining asosiy sabablarini tahlil qiladi va tillar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf qilish yo'llarini taklif qiladi.

XXI asrda ingliz tilidan deyarli barcha sohalarda foydalanish globalizatsiyaning eng jiddiy oqibatlaridan biri hisoblanadi. David Crystal (1997) ta'kidlaganidek, ingliz tili iqtisod, fan, texnologiya va internet sabab jahon aloqa tiliga aylangan. Bu tilni bilish insonlarga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq, etno-lingvistik tillar himoya qilinmasa, ularda yo'qolish xavfi ortadi. Ya'ni hozirgi kunda filmlar, musiqalar va ijtimoiy tarmoqlardagi, umuman, internetdagi kontentlarning 50%dan ko'pi ingliz tilida. Bu esa mahalliy qadriyatlar va madaniy o'ziga xoslikning zaiflashuviga olib keladi.

Ingliz tilining ustunligi madaniyatlar xilma-xilligiga ham tahdid qiladi. Alastair Pennycook (1994) qayd etganidek, ingliz tilini o'rganish faqat tilni emas, balki g'arb qadriyatlari, madaniyati, turmush tarzini ham qabul qilishdir. Bu esa madaniy bir xillashuvga olib keladi.

Ko'plab nufuzli Universitetlar Harvard, Oxford, MIT va boshqa shunga o'xshash universitetlar ingliz tilini asosiy o'qitish tili sifatida tanlaydi. Shu sababli, ko'plab insonlar bu tilni o'rganishga qiziqadi va ularda IELTS, TOEFL kabi Xalqaro sertifikat olishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Hangbin Li, Lingsheng Meng kabi professorlar ingliz tilini bilish bo'yicha talablar, til testlari, sertifikatlar universitetga qabul qilinishida tengsizlikni oshirishini aytib o'tadi.

Hozirgi kunda etno-lingvistik tillarni ingliz tili bilan tenglashtirish bo'yicha harakatlar olib borilmoqda. Tove Skutnabb-Kangas (2000)ning "Linguistic Human Rights" loyihasi har bir bolaning o'z ona tilida o'qish huquqini ta'minlash va mahalliy tillar uchun konstitutsiyaviy himoya yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bundan

tashqari, YUNESKOda ko'p tilli ta'limni joriy qilish, ingliz tilini emas, balki etno-lingvistik tillarni ta'limning tayanch tili qilish va mahalliy tillar uchun darsliklar yaratish borasida chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya ko'plab sohalarda foyda keltiradi, ammo til tengsizligi va madaniy yo'qolish singari salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun, har bir davlat va Xalqaro tashkilotlar ingliz tilini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, etno-lingvistik tillarni ham rivojlantirishga e'tibor qaratishi zarur. Chunki, til-nafaqat aloqa, balki xalqning o'zligi, tarixi va madaniyati hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tove Skutnabb-Kangas, Linguistic Genocide in Education or Worldwide Diversity and Human Rights. London. Lawrence Erlbaum Associates, 2000.-130b.
2. David Crystal, English as a global language: what are the dangers of a global language. Angliya. 1997.-14b.
3. Alastair Pennycook, The cultural Politics of English as an International Language. New York. Routledge, 1994.-40b.
4. Hangbin Li, Lingsheng Meng. English Language Requirement and Educational Inequality: Evidence from 16 Million College Applicants in China, NBER Working Paper No. 32162, Cambridge, MA, USA, 2024.
5. 5. Makhmudova, S. A. (2023). PECULIARITIES OF REPRESENTATION OF BINARY OPPOSITION "FRIEND/FOE" IN DIFFERENT SPACES OF J. ALDRIDGE'S NOVEL "DIPLOMAT". Open Access Repository, 9(7), 138-144.
6. Makhmudova, S. A. (2023). TRIAD "OTHER-OWN-FRIEND" IN "ORIENTAL" NOVELS OF J. ALDRIDGE. Conferencea, 87-89.